

## **O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB, OILA VA MAXALLA HAMKORLIGI**

**Berdiyeva Xanifa,**

Surxondaryo viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi "Maktabdan tashqari ta'lim amaliy fanlar va tibbiyot" kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi

Kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolledji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan xolda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat.

Bola shaxsining shakillanishida butun ijtimoiy voqealik hususan uning o'zi tug'ilib o'sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat harakteri ota-onaning ahloqiy saviyasi, ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo'lib yetishishiga ta'sir ko'rsatadi. Mehnat tarbiyasi – hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi profesional barkamollikning asosidir. Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo'lgan ana shu tarbiya, ya'ni o'quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalaridagi mehnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning o'rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarishda boshlang'ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog'liq. Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafli ekanini, halol mehnat qilgan kishi yuksak, qadirlanishni, mehnatdan qochadigan ahloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash umuman aqlli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabda, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Mehnat tarbiyasining oilada ham muvaffaqiyatli tashkil etishga imkoniyatlar ko'p. Bolaning boshlang'ich mehnat faoliyatida ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabatlari, harakatlari namuna sifatida hizmat qiladi. Ammo bolalar artofidagi "Mehnat" ni ko'rib tursa ham, mehnatsevarlik fazilati tarkib topaveradi. Bunga ota-onalar o'ylab, ehtiyotkorlik bilan ish ko'rishlari lozim. Bolalarni mustaqillikka o'rganishda ularga kiyinish usullarini tushuntirib, ko'rsatib berish lozim. Ularning kiyim va sochiqlari uchun maxsus veshilka qoqib qo'yish ham juda muhim hisoblanadi. Bola eshikdan kirib kelgan ustki kiyimlarini tartibsiz xolda yechib tashlamasdan, aksincha ota-onalar mahsus tayyorlangan veshilkaga ilishga odatlanib boradi. Oilada bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan xolda, maktab, mahalla bilan hamkorlikda ularning yoshlariga mos topshiriqlar, berib borish, kundalik vazifalarni taqsimlab mehnatsevarlikni tarbiyalash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bolani bog'cha yoshidan boshlab, o'z-o'ziga xizmat qildirish (kiyinish, yechinish, o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yish) o'rgatib boriladi. Bolalar ulg'ayganlari sari ularning "Mehnat qilish" vazifalar doirasi kengayib boradi. Masalan kir yuvish, chorva hayvonlariga qarash va boshqa ishlar topshiriladi. Bolalar yoshligidan ota-onalarning yaqin yordamchilari ekanligini his qiladilar. Maktab, maxalla hamkorlikda o'tkazilgan mehnatga bog'liq tadbirlarga bola o'sha tadbirni qanday maqsatda o'tkazilayotganini tushunib qatnashsa, mehnat qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Mahalla, maktab, oila bola tarbiyalashga hamkorlikda ma'sul hisoblanadi. Yuqorida aytilganidek ota-onalarning mehnatga bo'lgan munosabati bolaga kuchli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi va o'zidan katta sinfdoshlari, mahalladagi faollarning mehnatsevarligi kichiklarga mehnat na'munasiga aylanadi.

1. Birinchidan maqsadga yo'naltirilgan "Tarbiya" yo'li bilan. Bu usulda bolalarda mehnatga mehr uyg'otib, ularning mehnat qilishlari uchun ko'nikma xosil qilishga yordam beradilar.

2. Oila, maktab, mahalla hamkorlikda bolalarning ahloqiy va mehnat tarbiyasiga ongli munosabatda bo'lishi-shakllangan an'analar, qiziqish va ehtiyoj kattalarning o'zaro munosabatlari tarbiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

3. Ota-onalar, maktab bolaning qiziqishi va maylini o'z vaqtida payqab, ulardan istedodni rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishlari lozim. Bu esa bolalarda kattalar mehnat yutuqlaridan fahrlanish hissini tarbiyalab, ularga ergashishga undaydi. Oilada, maktabda, mahallada bolalarga mehnat tarbiyasini singdirish. Agar bola biror topshiriqni bajarishga qiynalsa unga o'z vaqtida yordam berish kerak.

Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvoffakiyatli o'qishga yaxshi zamin bo'lib xizmat kiladi. Ota-onalar shuni unutmasliklari kerak-ki, maktabda xam bolalar bilan mehnat tarbiyasi olib boriladi. Mehnat va ijtimoiy foydali mehnat darslari ham o'tiladi. Mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmagan bolalar bu darslarda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladi. Oilada olib borilgan yaxshi mehnat tarbiyasi bolalarning muvaffaqiyatli, chidamli bo'lib o'sishlariga zamin bo'ladi. O'g'il qizlarni barcha mehnat turlariga tayyorlashda maktab, oila, mahalla hamkorligida bolalarni yangi hayotga

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

tayyorlash faqat ijobiy natija beradi. Vaqtning qadriga yetish, daqiqalarni e'zozlash, uning barcha imkoniyatlarida oqilona foydalanish hozirgi kunning muhim shioriga aylangan bir paytda ota-onalarning kattalarni ibrati bolalar uchun ibrat bo'lib hizmat qilishi kerak. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida uzluksiz ta'limga alohida e'tibor berilgan. Uzluksiz ta'limning boshlang'ich nuqtasi oila hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risidagi qonunning beshinchi bob o'ttizinchi moddasida Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari quyidagicha ko'rsatib o'tilgan. Voyaga yetmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolalarning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart, hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o'rta, maxsus, kasb-xunar ta'limini olishlari uchun javobgardir. Ana shulardan kelib chiqib, har bir ota-onalar, maktab, mahalla farzandlar oldidagi fuqarolik burchlarini his etishlari lozim. Jamiyatimiz uchun yuqori malakali raqobatga qodir mutaxassisliklari tayyorlash uchun maktab, ota-onalar va mahalla hamkorlikda olib boriladigan kasbga yo'naltirish ishlarini takomillashtirish, yangi shakl va usullarni izlab topish va bunga keng jamoatchilikni ham jalb etish kerak. Oila maktab, mahalla tarbiyasiga loqayd bo'lmasligi lozim. O'quvchi maktabda ta'lim tarbiya olish bilan birgalikda shaxs sifatida shakillana boradi. O'zining jamiyatdagi o'rnini sinfdoshlari, qolaversa murabbiy mahalladagi ilg'or hunarmandlarga murabbiy o'qituvchilari bilan taqqoslay boshlaydi. O'zidagi yaxshi jihozlarni namoyon etishga intiladi va o'zgaralar ichida ajralib turishga harakat qiladi. Xuddi shu paytdan boshlab, umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatuvchi o'qituvchilar, sinf rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchilari kasb-hunarga yo'llash sohasidagi dastlabki ma'lumotlarni bera boshlashlari lozim. O'quvchilarning o'zi uchun munosib kasblar tanlashida ota-onaning roli alohida o'rin tutadi. Ota-onalar, mahalla maktab jamoasi bilan o'z farzandi xususida vaqti-vaqti bilan uchrashib, maslahatlashib, uning layoqati, kasblarga bo'lgan qiziqishlarini va individual hususiyatni e'tiborga olib, kasb tanlash ishlarini tashkil etish lozim. Sinf rahbari, maktab ruhshunosi kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutahassis va maktab shifokori bilan hamkorlikda ish olib borib, o'quvchining psixologik-pedagogik xaritasidan yozilgan tashxis natijalariga asoslanib, kasbiy maslahat berish lozim. Buning uchun avvalo ota-onalarning o'z farzandlari haqida fikirlarini bilish kerak. O'quvchi bilan ota-ona istaklari mos kelgan taqdirdagina kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis o'quvchi tanlagan kasblar haqida ma'lumotlar berish bilan o'quvchining tanlagan kasbiga yanada qiziqish uyg'otishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatimiz va tajriba sinov ishlarimiz natijasida umumta'lim maktablarida xalqimizning milliy, tarixiy an'analaridan qadriyatlaridan foydalanish darajasini va saviyasini aniqlashimiz uchun mahalla bilan hamkorlikda ish olib borish faqat ijobiy natija beradi. Ma'lumki maxalalarda xunarmandchilik ijtimoiy formatsiyalar doirasida texnika rivoji bilan birgalikda takomillasha boradi va turli ixtisosliklar: kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o'ymakorlik, zargarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunikasozlik kabilar ajralgan. Yuqorida zikr etilgan xunar turlari ayrimlari barcha maxalalarda mavjud. Maxalalarda ochilgan turli xildagi xunarmandchilik shoxobchalariga bolalarni qiziqitirish maktab, oila, mahalla xamkorlikda, xunarmandchilikka oid ko'rgazmalar tashkil etish, ushbu tanlovda ishtirok etgan o'quvchilar mehnatiga ijobiy baho berish o'quvchilarni o'sha kasibni egallashlari uchun aniq ma'nba bo'lib hizmat qiladi. Qadimgi manbalarda aks ettirilgandek Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xiva va Qo'qon shaxarlarida me'morchilik, quruvchilik inshootlari keng rivojlangan. Shu bois hunar va kasb haqida maxalla oqsoqollari momolar ham o'zlarini hayotlarini farovon o'tkazishlarida o'rgangan xunarlarini foyda berganini takidlashdi. Maktab, oila, maxalla, hamkorlikda mehnat ta'limi avlodni mehnat qilishga tayyorlashni shakillantirish, kelajagi buyuk davlat qurishda amaliy ishtirok etishga intilish ko'nikmasini tarkib toptirishning aniq maqsadga qaratilgan jarayoni bo'lib xisoblanadi. O'quvchilarni kasblarni mukammal egalashlari uchun darasdan keyingi to'garaklar maktablarda, maxallalarda tashkil qilinmoqda. Bolalarni o'zlrri shug'ullanayotgan to'garaklarda mukummaal shug'ulanishlari uchun ustozlar shirin so'z, xushmuomila bo'lishlari kerak. Xammaga ma'lumki yosh o'quvchilar qaysi ustoz shirin so'z yaxshi muomilada bo'lsa, bola qalbiga yo'l topa olsa unga bog'langan xolda o'sha kasbga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'z kasbiga fidoiy bo'lgan xar bir o'qituvchi o'zining tarbiyalayotgan o'quvchisini kelajagiga bafarq bo'laolmaydi. Oila, maktab, maxalla xamkorlikda o'quvchi 9-sinfni bitirgunga qadar kechadigan ruxiy kechinmalariga befarq bo'lmasliklari kerak. Shunday qilib, o'quvchilarni kasb-xunarga yo'naltirish ishi hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Kasb-hunarga yo'naltirishning ishining pirovard natijasi ijtimoiy – ixtisodiy omil bo'lib, shaxsga xam, davlatga xam real foyda keltiradi.

Adabiyotlar

1. Бердиева, Ханифа Мейлиевна Изучение научных основ механизации и автоматизации управления сельским хозяйством в курсе физики средней школы (на материале сельских школ Узбекистана). <https://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-02/dissertaciya->

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

[izuchenie-nauchnyh-osnov-mehanizatsii-i-avtomatizatsii-upravleniya-selskim-hozyaystvom-v-kurse-fiziki-sredney-shkoly-na-m](#)

2. Бердиева Х.М., Шаманов М.Х., Абдурахмонова Р.Х., Гулбоева Б.Н. Технология и методика обучения учащихся общеобразовательных школ // Студенческий вестник: электрон. научн. журн. 2018. № 29(49). URL: <https://internauka.org/journal/stud/herald/49> (дата обращения: 10.03.2022).

3. Бердиева Х.М. Развитие профессиональных коммуникативных навыков педагогов в сфере образования. <https://s.siteapi.org/d955411c180ee78/docs/khhp4bee6u8g8goowcsg0gcg8os0kw>

4. Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna Pedagogical support and development of the intellectual opportunities of children in preschool education <http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2019/12/abstract-pedagogical-support-and-development-of-the-intellectual-opportunities-of-children.pdf>

5. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat. The quality of preschool education at the present stage. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Year : 2021, Volume : 11, Issue : 10. [10.5958/2249-7137.2021.02402.2](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=10&article=351#aff001>

6. Meyliyevna Berdiyeva Muhabbat Tasks for preschool educators. [10.5958/2249-877X.2021.00078.3.](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmnr&volume=11&issue=10&article=023)

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:sajmnr&volume=11&issue=10&article=023>

7. Berdiyeva M.M. Formation of intellectual culture of a preschooler. <https://scientific-conference.com/images/PDF/2019/55/International-scientific-review-LIV-ISBN.pdf>

8. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Мактаб ўқувчиларини касб-хунарга ўргатиш йўллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

9. Бердиева Ханифа Мейлиевна. Таълим тизимини модернизациялашдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш усуллари. <https://sciencecentrum.pl/wp-content/uploads/2020/05/POLISH%20SCIENCE%20JOURNAL%20%E2%84%9626%20282%29%20%28web%29%20%283%29.pdf>

10. Бердиева Мухабат Мейлиевна. Педагогик қўллаб-қувватлаш асосида илк ёшдаги болаларни интеллектуал ривожлантириш. “Профессионал таълим тизимида ислохотлар: малака ошириш таълим турида инновацион ғоялар” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция. <https://staff.tiame.uz/storage/users/546/articles/iMJfaUDoPQYZqSxUhG7olj9aZ9XSLff9CSErkMxL.pdf>

11. Usmanova Saodat Erkinovna. (2021). Formation of spiritual and moral qualities of preschoolers on the basis of public education. Middle European Scientific Bulletin, 11. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.11.421>

12. Усманова Саодат Эркиновна Возможности Использования Мультимедийных Компьютерных Программ В Развитии Детей Дошкольного Возраста. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46438589>

13. Jumayeva malika aliyevna, & buriyev jamshid jumanazarovich. (2021). The role of activity in the upbringing and development of the child . International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 1(2), 126–129. Retrieved from <https://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/40>

14. Jumayeva Malika Aliyevna. (2021). Independent musical activity in preschool organizations. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(1), 9–10. Retrieved from <https://openaccessjournals.eu/index.php/jedic/article/view/16>

15. Aliyevna, J. M. (2021). The Social Activity of the Educator with the Family. European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630), 12, 401-403. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/338>

16. Lola Utasheva Shoturaevna. (2021). Social and pedagogical activities in preschool educational institutions. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(11), 412–415. Retrieved from <https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/193>

17. Shoturayevna, U. L. (2021). Development of Creative Competence of Educators in Preschool Educational Institutions. *European Journal of Life Safety and Stability* (2660-9630), 12, 395-397. Retrieved from <http://ejlss.indexedresearch.org/index.php/ejlss/article/view/336>

**Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar.** Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2022 yil 28-29 aprel

18. Radjabova G.M. The educational value of oral folk art for preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

19. Berdieva M.M. Increasing the research activity of a pupil of a preschool organization // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

20. Berdieva Kh.M. Functions of the organization of advanced training of teachers in the field of education // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

21. Utasheva L.Sh. Introducing preschoolers to the world of fiction // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С. {см. сборник}.

22. Usmonova S.E. Plot construction as a means of developing the creative abilities of children // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.

23. Muhammadiyeva F.T. Technology familiarization of preschoolers with various materials through cognitive research activities // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С

24. Mamatmuminova M.G. Features of the use of animation in the development of creative abilities of preschoolers // European research № 1(75) / Сб. ст. по мат. «European Research: Innovation in Science, Education and Technology/Европейские научные исследования: инновации в науке, образовании и технологиях»: LXXV межд. науч.-практ. конф. (Лондон. 16 марта, 2022). С.